

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

9/2023

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004

Норкўчқоров Ш. Ш.	Таҳлили жанрҳои шеърӣ дар “шачарат-ул-арўз”-и Саид Музаффаралии асирӣ	263
Тухсанов К.Р.	“Маснавийи маънавий” и узбекская литература	268
Худойқулова М.А.	Рауф Парфи ижоди ҳақидаги баҳслар	273
Qahharova D.A.	Ko'ngil timsolining ramziy mohiyati	277
Саидова Н.З.	Современная узбекская проза: сохранение мировых литературных традиций	281
Чориева З.Б.	Лингвокультурологический анализ узбекских и английских скороговорок и загадок: сравнительная типология и особенности	285
Курбонова Г.С	Лингвофалсафий қарашлар бадиий-фалсафий матнларнинг бош компоненти сифатида: интерпретация ва таржима муаммолари	290
MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK *** TEXTOTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Safarova H.O., Ismoilov N.	Xiromiy “Chor darvesh” asari toshbosma nusxasining Hamd bobi talqini	299
“NAVOIY GULSHANI”		
Bekova N.J.	Tatabbu’ –yangi ijodiy maydon	302
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Rashidov R.R.	Loyya Jirgʻaning afgʻon siyosiy tizimida tutgan oʻrni va taʼsiri	310
Musayev M.T.	Globallashuv sharoitida missionerlikning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga taʼsiri	315
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGICS *** ПЕДАГОГИКА		
Oʻktamov M.Oʻ.	Boʻlajak pedagoglarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	321
Joʻrayev I.I.	Umumtaʼlim maktablarida informatika fanini mobil texnologiyalar asosida oʻqitish metodikasi	326
Холматова Ш.Т.	Инновационные подходы к обучению русскому языку в современных условиях	332
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Hayitov Sh.A., Hasanova H.Y.	Turkiston mintaqasida sanoat sohasidagi texnik yangiliklarning tarixiy tahlili (1917-1924 yillar)	337
Savriyev J.	Oʻrta Zarafshon vohasi yodgorliklari: Raboti Malik karvonsaroyining yaratilish hamda oʻrganilish tarixidan ayrim maʼlumotlar	342
Каримов К.С.	Историческая интерпретация документов об общественных отношениях в деятельности народных судей Туркестана	346
IQTISODIYOT *** ECONOMICS *** ЭКОНОМИКА		
Саъдуллаев О.Т.	Корхоналар фаолиятига таъсир қилувчи рискларнинг назарий асослари ва уларни юзага келтирувчи омиллар таҳлили	351
Qolqanatov A.N.	Iqtisodiyotning globallashish sharoitida bozor faoliyatining amal qilishi (ijodiy ishlab chiqarishda)	359
OʻZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGANLIGIGA 34 YIL TOʻLDI		
Asadov T.H.	Ona tili – tafakkur va tuygʻuning yorqin aksi!	364

UO‘K 82

XIROMIY “CHOR DARVESH” ASARI TOSHBOSMA NUSXASINING HAMD BOBI TALQINI

Safarova Hilola Oxunjonovna,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.n.

Ismoilov Namozbek,

Buxoro davlat universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

1-bosqich magistranti, Mir Arab o‘rta maxsus islom bilim yurti mudarrisi

Annotatsiya. Maqolada Mulla Qurbon Xiromiyning Buxoro San’at muzeyi xazinasida saqlanayotgan “Chor darvesh” asarining 27844 raqamli toshbosma nusxasining muqaddimaviy boblari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Hamd bobidan misollar keltirilib tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Mulla Qurbon Xiromiy, Tahsin, “Yangi nafis uslub”, “Bog‘u bahor” nastaliq, basmala, salovot, hamd, xalq kitobi.

ТОЛКОВАНИЕ ГЛАВЫ “ХАМД” ЛИТОГРАФИРОВАННОЙ КОПИИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ХИРАМИ «ЧОР ДАРВЕШ»

Аннотация. В статье представлена информация о предварительных главах литографированного экземпляра произведения муллы Курбана Хирами “Чор дарвеш” под номером 27844, хранящегося в сокровищнице Бухарского художественного музея. Были приведены и проанализированы примеры из главы “Хамд”.

Ключевые слова: Мулла Курбан Хирами, Тахсин, “Новый изящный стиль”, “Богу бахор” насталик, басмала, Саловат, хвала, народная книга.

INTERPRETATION OF THE “HAMD” CHAPTER OF THE PRINTED OF HIRAMI'S COPY OF “CHOR DARWESH”

Abstract. The article presents information about the preliminary chapters of the lithographed copy of the work of Mullah Kurban Hiromei “Chor Dervesh” under the number 27844, stored in the treasury of the Bukhara Art Museum. Examples from the praise chapter were given and analyzed.

Keywords: Mullah Kurban Hiromiy, Tahsin, “New elegant style”, “Garden spring”, nastaliq, basmala, salovot, praise, folk book.

Kirish. “Chor darvesh” xalq kitoblaridan biri sifatida Sharq xalqlari orasida ancha keng tarqalgan ishqiy-sarguzasht asarlar sirasiga kiradi. Asarning ilk nusxasi XVIII asrda O‘rta Osiyoda forsiy tilda noma’lum muallif tomonidan yaratilgan. “Chor darvesh” asarining shuhrat qozonishi va tarqalishida hind, tojik, o‘zbek, turkman va boshqa o‘nlab xalqlarning xizmatlari beqiyos hisoblanadi. Chunki “Chor darvesh” badiiy asar va tarjima asar sifatida turli mamlakatlarda, turlicha nomlar bilan, turli yillarda yozilgan, nashr etilgan hamda ommalashtirilgan. XVIII asr oxirlarida Tahsin urdu tilida “Yangi nafis uslub”, Mir Ommon esa 1802 yilda “Bog‘u bahor” nomlari bilan “Chor darvesh” syujeti asosida nasriy asarlar yozishgan. Bundan tashqari, Hindistonning Bombay, Lohur, Dehli, Kal’kutta, Ollahobod, Lakhnava kabi shaharlarida forsiy tilida, O‘rta Osiyoning Kitob, Xorazm, Qo‘qon, Buxoro, Toshkent, Dushanbe kabi viloyat va shaharlarida o‘zbek va tojik tillarida, Qozonda tatar tilida, Peterburgda rus tilida “Chor darvesh” nomi bilan asarlar keng tarqalgan. Bu qissa 1927, 1957 yillarda Moskvada “Bog‘u bahor”, 1951, 1961 yillarda Dushanbeda “Chor darvesh” nomi bilan nashr ettirilgan. Tadqiqotlarning o‘rganishlaridan shuni bilish mumkinki, “Chor darvesh”larning ko‘pchiligi XIX asrga tegishlidir.

Asosiy qism. Xiromiyning “Chor darvesh” asari tojik-forsi tilidagi nasriy “Chor darvesh” asosida yaratilgan. Ammo Xiromiy ham salaflari singari manbaga erkin, ijodiy yondashgan. Shoir butun badiiy mahoratini ishga solib, “Chor darvesh”ning tojik-forscha varianti asosida butunlay o‘zgacha yangi asar yaratgan. Xiromiy, albatta, asarda XIX asr ruhini, zamondoshlarining ezgu orzu-umidlarini singdirishni maqsad qilib, buni amalga oshira olgan. Qiyinchiliklarga qaramay, Xiromiy ijodiy ishini aslo to‘xtatmagan, asarlarini tahrir qilib, pishitib, qayta-qayta ishlab mukammallashtirib borgan. Shuning uchun “Chor darvesh” asarining dastlabki variantidan keyin ikki marta (1856, 1862) qayta ishlangan [2].

Mulla Qurbon Xiromiy ijodini o'rganish, to'plash va ilmiy tadqiq etish ishlari XX asrning 40-70-yillardan boshlangan. Xiromiy asarlari 1940- yildan xrestomatiya va darsliklaraga [2] kiritila boshlandi. Keyinchalik shoirning asarlari kitob qilib nashr etildi [3].

Buxoro San'at muzeyi xazinasida "Chor darvesh" asarining 2 ta toshbosma nusxasi mavjud bo'lib, ularning biri 100 bet va ikkinchisi 252 betdan iborat. Biz ilmiy ishimiz uchun 27844 raqamli toshbosma nusxasini asos qilib oldik. Xiromiyning "Chor darvesh" asari ham mumtoz adabiyoti an'analari xos bo'lgan "Bismillohir Rahmonir Rahiym" jumlasini bilan boshlangan. Hamd, na't, bag'ishlov kabi asarlarning kirish qismiga taalluqli boblar vujudga kelgan. Muqaddimaviy boblar necha asrlardan beri qat'iy qolipga aylanib, XX asrning boshlariga qadar davom etdi. Jumladan, Alisher Navoiyning "Xamsa" asari ham shu mezon asosida yaratilgan. Dostonda dastlab basmalayi sharifning ta'rifi keltirilgan. Ma'lumki, Alloh taolo Qur'oni Karimni Bismillohir Rahmonir Rahiym jumlasini bilan boshlagan. Bu esa musulmonlarga o'rnak, ya'ni har doim o'z so'z va ishlarini "Bismillah" bilan boshlamog'i lozim, demak. Abu Lays Samarqandiy aytadi: "Farzandning tili kalimaga juftlangan kundan boshlab uning ongiga quyidagi uch muborak jumlaning quymoq farzi: "Assalomu alaykum", "Bismillahir rohmahir rohim", "Allohu akbar". Har bir ishni "Basmala" bilan boshlash sunnatdir. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam: «Har bir ish "Bismillah" bilan boshlanmas ekan, uning oxiri kesikdir"», deganlar. Zero, Hazrati payg'ambarimiz hadislaridan birida: "E'tiborli har bir ish "bismillah" bilan boshlanmas ekan, uning oxiri kesikdir", ya'ni barakasi bo'lmaydi, oxiriga etmaydi, deb qat'iy ta'kidlaganlar. Modomiki shunday ekan, Alisher Navoiy buyuk "Xamsa" asarining ilk dostoni "Hayrat ul-abror"ni ham "Bismillohir Rahmonir Rahiym" bilan boshlashi tabiiy bir hol edi [1]. Bu an'ana Alisher Navoiydan keyin ham davom etgan. Xiromiy ham "Chor darvesh" asarini muqaddimaviy boblar bilan boshlagan. Ular quyidagicha:

Bismillahir rohmahir rohiym
Xudoyeki olamg'a xalloq erur,
Bori shirkat-u juftidin toq erur.
Birovni qilib oshiyonin baland,
Birovni etib el aro arjumand.
Birovni kishvarg'a shoh aylabon,
Mute' anga necha sipoh aylabon.
Birovni qilib chunin afruxta,
Bo'lib anga yuz ming makr soxta.
Birov yetkurib ko'kka ayvonini,
Birov topmayin baytulxarobini.
Qilib kun jamolini nuroniy ul,
Etib tun yuzin tiyra zulmoniy ul.


Muallif misralarda Alloh taolo butun borliqning yaratuvchisi ekanligi va unga biror narsa sherik bo'lmasligini, shuningdek, jufti ham yo'q ekanligini aytib o'tadi.

Darhaqiqat, Alloh subhonahu va taolo ko'z bilan ko'rib turganimiz va ko'zimizga ko'rinmaydigan butun borliqni yaratgan qudrat sohibidir. Avval koinot yaratilib, undan so'ng inson xalq qilingan. Azaldan yakka-yu yagona Allohdan boshqa biror narsa mavjud bo'lmagan. Alloh taolo o'zining borligini, buyukligini, qudratini bildirish uchun oliy hikmati bilan osmon, yer va undagi boyliklarni, o'simliklar duvosini yo'qdan bor qilganligi haqida fikrlar bildirilgan. Keyingi misralarda esa Alloh taolo insonlarni turlicha yaratgani, birovni boy qilib, uylarini baland qilgani unga ko'plarni xizmat qildirgani, boshqa birovni esa kambag'al qilib qo'ygani haqida aytib o'tadi. Muallif bu fikrlar orqali Alloh taoloning har narsaga qodir zot ekanligini go'zal ifodalar bilan bayon qilib o'tgan.

Basmaladan keyin 11 misra Alloh taolo hamdi, 5 misra payg'ambarimizga na't va 8 misrada xalifalarga maqtov keltirilgan.

Xarobot eli aylab andin umid,
Munojot eli ham eshitib navmid.
Musofirg'a munis majodarg'a ham,
Musulmonga razzoq kofarg'a ham.
Jahon mulkida har nekim o'ch-u past,
Mute'yi aning barcha hushyoru mast.
Hamma shohlaridur aning bandasi,
Bori tojvarlari sarrofkandasi
Ibodatinin garchi sharmandaheman,

Anga lillahil hamdkim bandaheman.



Misralardagi ayrim istilohlarning izohini berib o'tamiz: **Xalloq** –Yaratuvchi, xudo; **Shirkat** –a. Sheriklik, o'rtoqlik, biror ishda birgalik; **Afruxta** – f. Lovullab turgan, yaltiroq, porloq; **Baytul xarob** – xotirjamlikka, obodlikka erishmagan, halovatini topmagan qalb; **Tiyra zulmoniy** – qorong'u – qorong'ulikka tegishli, qorong'idagi: qora, qop-qora; **Kofar** – kufr ahli 1. Tanimovchi, inkor etuvchi, islom dinini tanimovchi, g'ayri din. 2. Rahmsiz, rahmsiz sevgili; **Xarobot eli** – g'ofil xaloyiq; **Munojot eli** – ogohlar; **Mute'** –itoat etuvchi, bo'ysunuvchi.

“Bismillahir rohmahir rohim” jumlasidan keyin Allohga hamdlar aytilgan. Hamd - arabcha maqtov, shukur (hamdu sano – maqtov, shukur) degan ma'noni bildiradi. Sharq mumtoz adabiyotida basmalayi sharifni keltirib, keyin hamd aytish va asarlarni shu yo'nalish asosida boshlashning asosiy sababi Allohning kitobi bo'lmish Qur'oni Karimga o'xshatma qilishdir. Chunki ilohiy kitobning birinchi surasi ham “Bismillohir rohmahir rohim” dan keyin hamd bilan, ya'ni “Allohga hamd bo'lsin” degan oyat bilan boshlanishidir. Musulmon olamining dasturulamali bo'lgan Qur'oni Karimdagi bu holat adabiyotda maxsus an'ana darajasiga ko'tarilgan [1].

Yuqorida keltirilgan misralarda Allohni anglash va unga yetishish yo'li xavfli va mashaqqatli ekanligini haqida so'z bormoqda. Ya'ni g'ofil xaloyiq Allohga umid qiladi, hatto ogohlar ham undan umidvor. Yaratuvchining inoyatiga musharraf bo'lmoq uchun hamma - g'ofil bandalar, ogohlar, musofirlar, musulmonlar, shohlar umidvor va ushbu yo'lga qadam qo'yadi. Bu yo'l yorug' bo'lsa ham, ayni damda mashaqqatli hisoblanadi.

Xulosa. Basmala, hamd, na't va munojotlarning keltirilishi mumtoz adabiyotining o'ziga xos an'analardan hisoblanadi. Chunki, Sharq mumtoz adabiyotida har bir asarni hamd bilan boshlash an'ana darajasiga ko'tarilgan, jumladan, Mulla Qurbon Xiromiyning “Chor darvesh” asari ham bundan mustasno emas. Xiromiy dostonida o'zbek mumtoz adabiyotidagi an'analarni davom ettirib, o'zining haqqa, xalqqa, hayotga bo'lgan munosabatlarini singdira olgan

ADABIYOTLAR:

1. Rajabova M., Amonova Z. Navoiyshunoslik. (O'quv qo'llanma). – Buxoro, Durdona, 2021. 33-bet.
2. Qoraev T. Танланган асарлар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. - 312 б.
3. Xiromiy. Chor darvesh. Buxoro san'at muzeyida saqlanayotgan 27844 raqamli toshbosma nusaxasi. 252 sahifa.